



**Innova
Science**



JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING



www.innovascience.uz



IJTIMOYIY ISHNING CHET EL DAVLATLARIDAGI O'RNINI VA ROLI

Annotatsiya:

Ushbu maqolada ijtimoiy ishning chet el mamlakatlarida o'rnini va rolining ahamiyati hamda ijtimoiy ishning rivojlanish tarixi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, ijtimoiy ishning globallashtirilgan zamonda dolzarbligi masalasi muhokama qilingan.

Kalit so'zlar:

Ijtimoiy ish, ijtimoiy farovonlik, ijtimoiy ish maktablari, xayriya, jamoat tashkilotlari, Yevropa, Rossiya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Meri Richmond.

Information about the authors

Nafiddinova Xosiyat Ravshanovna

Buxoro davlat universiteti, Yurisprudensiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi

Nizomova Sevinch Shavkatovna

Buxoro davlat universiteti, Ijtimoiy ish yo'nalishi talabasi

Ijtimoiy ish tushunchasiga jamiyatshunos olimlar, sotsiologlar turli xil ta'rif bergan. Jumladan, Ch.Zastrov "Ijtimoiy ish odamlarga, oilalarga, guruhlar va jamiyatlarga ularning shaxsiy, shaxslararo, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy imkoniyatlarini ularning hayot faoliyati sharoitlarini yaxshilash hisobiga oshirishda yordam ko'rsatish jarayonida odamlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga yo'naltirilgan"- deb ta'rif bergan.

Ijtimoiy ishning faoliyat turi va kasb sifatida vujudga kelishining tarixiy sarhadlarini u yoki bu darajada aniq belgilash mumkin. Shunday qilib, taqdiqotchilarning ko'pchiligi ijtimoiy ishning vujudga kelishini industrial jamiyat rivojlanishining boshlang'ich davri bilan bog'laydilar. 18-asr oxirlarida va 19-asr boshlarida Yevropa va Amerika mamlakatlari ishsizlik va muammolarning keskin ortishi bilan birga kechuvchi sanoat inqilobi yo'liga kirdilar. Ijtimoiy muommolarning keskinlashuvi adolatli ravishda jamoatchilik fikrini kambaqallik masalalariga qaratdi. 19-asrda ijtimoiy ishning professional faoliyat turi sifatida shakllanishi Yevropa mamlakatlarida jadal sanoatlashtirish va urbanizatsiya sababli ijtimoiy muommolarning keskinlashuvidan xavotirga tushgan G'arbiy Yevropa va Amerika filantropik jamiyatlarning faoliyatiga borib taqaladi. Dunyoda birinchi bo'lib ijtimoiy xodimlarni tayyorlash bo'yicha institutga asos solish sharafiga 1899-yilda ijtimoiy xodimlarni tayyorlash instituti faoliyatini boshlagan amsterdamlilik ijtimoiy islohotchilar sazovor bo'ldi. "Ijtimoiy ishchining" ijtimoiy mavqei AQShda, keyin G'arbiy Yevropa mamlakatlarida oshib bordi va bu shu soha bo'yicha mutaxassislar tayyorlashga sharoit yaratdi. Kasbiy ijtimoiy ishchilarni tayyorlash birinchi ixtisoslashgan ta'lim muassasalari dastlab Gollandiyada 1910-yilda, keyin AQShda, Buyuk Britaniya va Germaniyada yaratila boshlandi. Shunday qilib, bugungi kunda G'arbiy Yevropaning 20 dan ortiq mamlakatlarida ijtimoiy ish sohasida ma'lumot beradigan 500 dan ortiq o'quv yurtlari mavjud. Ko'pgina mamlakatlarda ushbu ta'lim davlat tomonidan moliyalashtiriladi, ammo Italiya va Fransiyada ularda 120 dan oshadi. Ba'zi mamlakatlarda ijtimoiy ish maktablarining xususiyati mavjud.



Masalan, Portugaliya, Ispaniya va Lotin Amerikasi mamlakatlarida bo'lgan ba'zi diniy mazhabga tegishli bo'lib, dunyoviy maktablar sonidan sezilarli darajada oshadi.

Chet elda eng ko'p yangi o'quv muassasalari 60-yillarda ochildi. Ushbu davr sanoatni rivojlantirish, urbanizatsiya jarayoni va aholining harakati kuchayishi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, oila doirasida jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Ayni paytda ijtimoiy va xalqaro birlashmalar ijtimoiy va xalqaro birlashmalar tashkil etildi, professional jurnallar va ixtisoslashtirilgan nashrlar nashr etildi, Ijtimoiy ishchining Xalqaro axloqiy kodeksi ishlab chiqildi. Yevropa va Amerikaning ko'plab mamlakatlarida, davlat ijtimoiy-siyosiy tadbirlari, yangi ijtimoiy xizmatlar tizimlari yaratildi, bolalarga yordam berish imkoniyatlari yaratildi, nogironlar uchun tibbiy reabilitatsiya muassasalari tarmog'i yaratildi.

Sohaning rivojlanishida Meri Richmondning ayniqsa o'zini beqiyos. Meri Richmond 1861 — 1928yillarda yashagan professional ijtimoiy ish asoschilaridan biri. U birinchi bo'lib ijtimoiy ish sohasida mutaxassislar tayyorlash maktablarini ochishga harakat qildi, uning ijtimoiy ishning rivojlanishiga qo'shgan hissasi tashkiliy ish nazariyasi va amaliyotidagi ilmiy yondashuvlarni asoslash bilan bog'liq. Meri Richmondning ijtimoiy ish sohasidagi eng mashhur asarlari uchta bo'lib, ular quyidagilar: Kambag'allarga do'stona tashrif: dalada ishlaydigan xayriya tashkilotlari uchun qo'llanma (1899); "Ijtimoiy tashxislar" (1917); Ijtimoiy ish nima? (1922)

Amerikalik shaxsning amerikalik mafkurasiga asoslanib, M. Richmond qashshoqlikni kasallik deb hisoblagan, shaxsning hayotini mustaqil ravishda tartibga solishga qodir emasligi.

Irlandiyada ijtimoiy ish faqat 1934- yilda professional maqomiga ega bo'ldi. 1941-yilda bir yillik kurslar, 1970- yilgacha ikki yillik kurs bo'ldi. 1954-yilda Dublinda universitet ochildi. 1966-yilda Tiniti kolleji ko'magida Kerk kollejining ochilishi bo'lib o'tdi. Ushbu kasb bo'yicha mutaxassislar tayyorlashni muvofiqlashtirish ijtimoiy ish bo'yicha maslahat qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi.

Norvegiyada 1920-yilda birinchi ijtimoiy ish maktabi ochildi. 1949-yilda birinchi kollej ushbu kasbda ochildi. Bugungi kunda Norvegiyada 4 ta kollej va xususiy diniy maktab mavjud. Ayni damda bu davlatda ijtimoiy ish sohasi ancha rivojlangan. Ijtimoiy ishda Norvegiya uchta kasbiy daraja va ta'lim mavjud:

- 1) ijtimoiy ishchi (sotsionom) - ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan shahar ijtimoiy idoralarida ishlash;
- 2) ijtimoiy pedagog - bolalar institutlarida bolalar bilan professional ishlaydi;
- 3) ijtimoiy muassasalar ichida va tashqarisida nogironlar bilan ishlashga ixtisoslashgan ijtimoiy xodim.

XIX asr Germaniyada ijtimoiy ish boshlangan asrdir. Mamlakatni sanoatlashtirish ijtimoiy ishning shakllanishi va rivojlanishiga turtki bo'ldi. Chunki ikkinchisi ishchilar oilalarining keskin qashshoqlashuvi bilan bog'liq va natijada ko'proq odamlar ijtimoiy ta'minotdan foydalana boshladilar. Niderlandiya tashabbusi bilan 1880-yilda Germaniya xayriya kongressi Kambag'allarga g'amxo'rlik qilish uchun Germaniya xayriya uyushmasi tashkil etildi. U Germaniya jamoat va xususiy vasiylik ittifoqi deb o'zgartirildi. Avval Berlinda, keyin Frankfurt-Maynda edi. Bu Germaniyada ijtimoiy ishlarni amalga oshirishda ishtirok etadigan davlat, xususiy, davlat institutlarini, shuningdek, shaxslarni birlashtirgan markaziy ittifoqdir. 1960-yillar va 1970-yillarning boshlarida ijtimoiy ishning rivojlanishi aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha yirik tashkilotlarning shakllanishiga turtki berdi. 1990-yillarning o'rtalariga kelibgina bunday institutlar o'sishining biroz pasayishi kuzatildi.

Germaniyadagi ijtimoiy ishchi: keksalarga g'amxo'rlik qilish bo'yicha ijtimoiy ishchi yordamchisi sifatida ishlashi mumkin; keksalarga g'amxo'rlik qilish bo'yicha ijtimoiy ishchi; bolalar va yoshlar muammolari bo'yicha psixoterapevt; sertifikatlangan o'qituvchi; qishloq xo'jaligi yordamchisi, oila maslahatchisi; tarbiyachi; oilaviy hayot yordamchisi; bolalarni tarbiyalashda yordamchi; nogironlar



uchun ijtimoiy ishchi; bolalar uyi o'qituvchisi; bolalar va yoshlarning bo'sh vaqtini tashkil qiluvchi; sohada yoshlar bilan mas'ul xodim; bolalar va yoshlar ishchisi; reabilitatsiya bo'yicha maslahatchi; ijtimoiy o'qituvchi; chet elliklar uchun ijtimoiy ishchi. Germaniyada, boshqa mamlakatlarda bo'lgani kabi, ijtimoiy ishchi kasbi asosan "ayol" yuziga ega. U kam maosh oladi, unchalik obro'li emas.

Rossiyada ham ijtimoiy ish rivojlanib alohida o'rin egallagan sohalardan biri hisoblanadi. Rossiyada ijtimoiy ish muhtojlarga yordam ko'rsatish bo'yicha faoliyat sifatida ko'plab asrlarga borib taqalsada, u turli jamoatchilik guruhlari, ijtimoiy soha tadqiqotchilari tomonidan XX asrning 90-yillaridan boshlab obyektiv zarur hodisa sifatida qarala boshlandi. Ushbu yillarda aholiga xizmat ko'rsatish tizimining qaror topishi, aholi bilan ijtimoiy ish olib borishda zamonaviy texnologiyalar va metodlarning keng qo'llanishi siyosatning eng jiddiy tendensiyalaridan biri bo'ldi.

Rossiyada ijtimoiy ish sohasini vujudga kelishini quyidagi davrlar asosida tahlil qilishimiz mumkin.

1. Arxaik davrdan X asrgacha bo'lgan davrlar urug' qabilaviy turmush tarzi va o'zaro yordamning ko'rinishi.
2. XII- XIII asrlar knyazlik va cherkovning birgalikdagi homiyligi .
3. XIV-XVII asrning ikkinchi yarmigacha bo'lgan davrda cherkov va davlat tomonidan ko'rsatilgan yordam.
4. XVII asrning ikkinchi yarmidan XIX asrning ikkinchi yarmigacha bo'lgan davrda davlat tomonidan ko'rsatilgan ijtimoiy yordam.

Shuningdek, Bacharova tasnifiga ko'ra, Rossiyada XX asrdagi ijtimoiy ish taraqqiyotida uch bosqich farqlanadi.

1. XX asrning 60-yillari
2. XX asrning 70-80-yillari
3. XX asrning 80-yillaridan —hozirgi davr

1-bosqich. XX asrning 60-yillar tajriba to'plash , ijtimoiy pedagogik amaliyotda tarbiyaviy ishni tashkil etishga yo'naltirilgan tashkilotchi pedagog va tarbiyachilar shakllanishi davri edi.

2-bosqich. XX asrning 70-80-yillar davomida ijtimoiy ehtiyoj, ijtimoiy ish, ijtimoiy tarbiyadagi ilg'or tajribalar muammoni yechish mumkin bo'lgan yangi sifat bosqichiga olib chiqdi. Nogironlar, qariyalar, ijtimoiy muhofazaga qattiq muhtoj bo'lgan odamlarning boshqa toifalari bilan olib boriladigan ijtimoiy ish tizimi to'liq emas edi.

3-bosqich. XX asrning 80-yillar oxiriga kelib ,mamlakatda ijtimoiy muammolarni davlat darajasida hal qilishga o'tish, ijtimoiy xizmatlarning keng infratuzilmaga ega bo'lgan yagona tizimini yaratish, uni ilmiy tahlil qilish, ijtimoiy ish sohasidagi jahon nazariyasi va amaliyoti, kadrlar bilan ta'minlashga o'tish uchun shart-sharoitlar yaratildi. Hozirgi kunda ijtimoiy ishning sof davlat tizimidan jamoat homiyligini ham qamrab oladigan tizimga o'tish yuz bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ganieva M. Ijtimoiy ish asoslari. -T., 2010.
2. Latipova N.M. *Ijtimoiy ish etikasi*. Toshkent: 2015. -B. 338-347.
3. www.xs.uz
4. www.nimfogo.uz
5. Холостова, Е. И. Социальная работа с инвалидами (Электронный ресурс): Учебное пособие / Е. И. Холостова. - 3-е изд. перераб. и доп. - М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К», 2013. - 240 с.



6. Nafiddinova, K. R. (2021). THE EXPLICATION OF THE FAMILY AND FAMILY CEREMONIES IN THE HISTORICAL LITERATURE. *Academic research in educational sciences*, 2(3), 174-180.
7. Nafiddinova, X. (2021). Ихчам тўйлар–давр талаби. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8(8).
8. Nafiddinova, X. (2023). ОИЛАДА ФАРЗАНД ТАРБИЯСИДА БЕШИК ТЎЙИНИНГ ЎРНИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 29(29).
9. Nafiddinova, X. (2021). Aқиqa marosimi va uning jamiyat hayotidagi o'rni. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8(8).
10. Nafiddinova, X. (2021). Хорijlik olimlar asarlarida oila, oilaviy marosimlar va ular bilan bog'liq masalalarning yoritilishi. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8(8).
11. Nafiddinova, X. R. (2020). The traditions related with the funeral ceremonies. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 10(12), 1261-1265.
12. Нафиддинова, X. P. (2020). БУХОРО ТЎЙ-ҲАШАМЛАРИ: ЎТМИШ ВА БУГУН. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, (SI-1№ 3).
13. Ravshanovna, N. K. (2021). The Ceremony of “NASIQA” and its Essence in the Life of the People of Central Asia. *Int. J. Sci. Res. in Multidisciplinary Studies Vol*, 7(2).
14. Ravshanovnad, N. K. (2022). THE ROLE OF RITUALS IN THE UPBRINGING OF CHILDREN IN THE FAMILY. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY*, 3(6), 54-60.
15. Ravshanovna, N. K. (2022). Normative Legal Basis of Protection of People with Disabilities. *Journal of Intellectual Property and Human Rights*, 1(12), 5-11.
16. Ravshanovna, N. K. (2022). *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY*.
17. Ravshanovna, N. K. The concept of family in the Bukhara city during the reign of the dynasty of manghits and its phenomen.
18. Ravshanovna, N. K. (2021, May). MARRIAGE CEREMONIES IN BUKHARA. In " ONLINE-CONFERENCE" PLATFORM (pp. 43-45).
19. Ravshanovna, N. K. (2022). Thoughts of Jadids on Family and Family Rituals. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(1), 197-201.
20. Нафиддинова, X. P., & Каландарова, Ф. А. (2020). Кушбеги Бухары-важный источник в изучении истории периода правления мангытов. *Вестник науки и образования*, (7-2 (85)), 26-29.
21. Sobirovich, T. B. (2023). Manifestations of Moral Threats in the Ideosphere of Uzbekistan and Their Prevention Strategy. *Asian Journal of Basic Science & Research*, 5(1), 103-108.
22. Sobirovich, T. B. (2023). Basic Criteria for Building the Third Renaissance in Uzbekistan. *Asian Journal of Applied Science and Technology (AJAST)*, 7(1), 149-157.
23. Sobirovich T. B. National Revival and Development Idiosphere of Uzbekistan. – 2023.
24. Sobirovich, T. B. (2023). MANIFESTATION OF CIVIL SOCIETY IN THE IDEOSPHERE OF UZBEKISTAN. *Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects*, 89-92.
25. Sobirovich, T. B., & Norman, Z. D. M. (2023). Harmony of National and Universal Values in Uzbekistan. *Harmony*, 7(1), 08-16.
26. Turdiyev, B. S. (2022). INTERPRETATION OF UNIVERSAL VALUES IN ZOROASTRIANISM. *INNOVATIVE DEVELOPMENT IN THE GLOBAL SCIENCE*, 1(7), 109-114. Sobirovich, T. B. Interethnic Harmony And Religious Tolerance-An Integral Part of The Ancient Traditions Of The Uzbeks.